



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
III-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

DUAL TA'LIM ASOSIDA TEXNIKA FANLARINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: ELEKTR ENERGETIKASI TA'LIMI MISOLIDA.....	14
Zoxidov Ikboljon Zokirjonovich	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARINING SAVDO HAJMINI OSHIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	20
Raxmonova Feruza Musakulovna	
MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT ARALASHUVINING IQTISODIY ASOSLARI	27
Yerjanov Shohrux Kabil o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ РИСКОВ НА ПРОДОВОЛЬСТВЕННУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	34
Нуруллаева Гулнара Коптлеуовна	
KORPORATIV BOSHQARUVDA NOMOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	39
Akmaljon Valijonov	
BYUDJET TASHKILOTLARIDA DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINING HISOB, NAZORAT VA ICHKI AUDIT OBYEKTI SIFATIDAGI IQTISODIY MAZMUNI	43
Abdulazizov Aziz Anvar o'g'li	
MAMLAKATIMIZ KOMPANIYALARI BOSHQARUV JARAYONLARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR.....	49
To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich	
TIJORAT BANKLARIGA KAPITAL BOZORI ORQALI INVESTITSİYALARNI JALB QILISH YO'LLARI.....	58
Qurbonova Vazira Ravshan qizi	
MEVA-SABZAVOTCHILIK KOOPERATSIYALARINI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL-MOLIYAVIY INTEGRAL INDEKSI	62
Bobojonova Shahnoza Otaxonovna	
DUNYODA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING ZAMONAVIY STRATEGIYALARI	69
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЕМ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ НА РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ И ВОЗМОЖНОСТИ АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	73
Муминжонов Анварбек Сайфитдин угли	
ANSWERING BUYER CARBON-DATA REQUESTS: A MINIMUM ACCOUNTING CONTOUR FOR SECOND-TIER EXPORTERS IN EMERGING ECONOMIES.....	82
Mukhammadiyaminova Shakhzoda Sherzodovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBALARI	89
No'manov Javoxir Olimjon o'g'li	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ ДЕГУРВА И ГЛОБАЛЬНОГО СЛОЯ НАСЕЛЁННЫХ ПУНКТОВ ПРИ КЛАССИФИКАЦИИ ТЕРРИТОРИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПО СТЕПЕНИ УРБАНИЗИРОВАННОСТИ	96
Салимова Юлдуз Исаковна	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDII SAMARADORLIGINI BAHOLASH: RAQAMLI INFRASTRUKTURA VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	105
Suyunov Shohzodbek Murod o'g'li	



O'ZBEKISTON MINTAQALARINING IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI KOMPLEKS BAHOLASH VA HUDUDLARARO TAFOVUTLARNI ANIQLASH.....	112
Ismatov Fazliddin Ibodovich	
QURILISH SOHASIDAGI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	117
Yunusov Abduvoxid Abdukarimovich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭКОНОМИКИ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	124
Рахмонов Мирвохид Ражабович	
ADVANCING SUSTAINABLE AND GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN THROUGH BILATERAL CARBON CREDITING MECHANISMS.....	133
Dilfuza Arifkhodjaeva	
Gulchekhra Nematullayeva	
Bakhtiyor Pulatov	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI MEKANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	141
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
O'ZBEKISTON BANLARINIGKING YASHIL BANK MAHSULOTLARI TASHKIL QILISH MEKANIZIMLARI VA ULARNING BANK IQTISODIY SAMARADORLIGINI SALBIY TA'SIR QILMAGAN HOLATDA MAHSULOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIK TA'MINLASH YO'LLARI.....	150
Nuriddinov Murodjon Nuriddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЕМЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	156
Асомиддинова Музайянхон Абдурахмон кизи	
AHOLI TURMUSH FAROVONLIGI VA KAMBAG'ALLIK KATEGORIYALARINING NAZARIY-METODOLOGIK EVOLYUTSIYASI HAMDA ZAMONAVIY BOSHQARUV KONSEPSIYALARI.....	164
Negmatullayeva Zarina Baxodirovna	
IQTISODIYOTDA OZIQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISH VA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	171
Siddiqov Zoxid Tulkunovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING KOMPLEKS IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH VA MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	178
Madrahimova Onajon Javlon qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINING YUQORI MALAKALI KADRLARGA BO'LGAN TALABINI SAMARALI QONDIRISHDA OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIM INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH ZARURIYATI.....	184
Nizamov Aslitdin Badreddinovich	
SUDLARNI MOLIYAVIY JIHATDAN BOSHQARISHNING XUSUSIYATLARI.....	191
Toshev Yigitali Boboqulovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT AXBOROTLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KOMPILYATSIYA QILISH SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	197
Bekberganova Farangiz Birodar qizi	
TOROID O'ZAKLI TO'G'RI CHIZIQLI HARAKAT IJRO ELEMENTINI DOIMY MAGNIT VA CHULG'AMNING O'ZARO TA'SIRI ASOSIDA ELEKTROMAGNIT KUCH HOSIL BO'LISH JARAYONINI TADQIQ ETISH.....	202
Abdullayev Mahmudjon Muxammedovich	
НАЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ СИСТЕМНОГО МОНИТОРИНГА И УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ УСЛУГАМИ В РЕГИОНАХ.....	214
Якубов Н.А.	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	221
Bauyetdinov M.J.	
Rustamova A.B.	



ЦЕНОВАЯ ПОЛИТИКА КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИТНЕС-КЛУБОВ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ	226
Соловьева Фарангиз Анваровна	
AQSHDA XUSUSIY TIBBIY XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH IQTISODIY MEKANIZMI AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	232
To'xtayev Umidjon Shuhrat o'g'li	
DAVLAT SEKTORIDA KADRLAR TAQSIMOTINING TAHLILI	243
Xodjayev Furkat Salimovich	
ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ КОНТЕЙНЕРНЫХ ПЕРЕВОЗОК ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫМ ТРАНСПОРТОМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	249
Ахмедова Дилафруз Муратовна	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA RAQAMLI TAFOVUT VA DAROMADLAR TENGSIZLIGINING KONVERGATSIYA HAMDA DEKOMPZITSION TAHLILI	258
Murotjonova Mubina Dilshod qizi	
TURISTIK FIRMALARDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINING XORIJIY TURISTLARNI JALB QILISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	267
Tolibova Aziza To'liqin qizi	
THEORETICAL AND PRACTICAL ISSUES OF ENERGY COST ACCOUNTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	274
Ergasheva Maftuna Asad kizi	
INSON RESURLARINI BOSHQARISH KONSEPSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA UNING MEHMONXONA BIZNESI KORXONALARIDAGI NAMOYON BO'LISHI.....	282
Narzullayeva Sarvinov Askar qizi	
QURILISH KORXONALARI EKSPORT FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINING TARKIBIY ELEMENTLARI VA AMAL QILISH TAMOIYILLARI	290
Mirzayeva Xulkar Abduladjon qizi	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTINING TARKIBIY BARQARORLIGI: EVOLYUTSION CHIDAMLILIK VA TARMOQLARARO BOG'LIQLIKNING EKONOMETRIK BAHOSI	297
Xuramov Suxrob Abdusamad o'g'li	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТРАНСФОРМАЦИЮ СТРАТЕГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА ОРГАНИЗАЦИЙ	304
Адилова Сакина	
OLIIY TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT BUDJETINING ROLI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	310
M.M. Tashhodjaev	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING OLIIY TA'LIM TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA KELGUSIDAGI TA'SIRLARI.....	316
Qarshiyev Sherzodbek Bahromovich	
O'ZBEKISTONDA MUDORABA, MUSHORAKA VA VAKALA-ISTISMOR INSTRUMENTLARINI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA FOYDALANISHNI RAG'BADLANTIRISH YO'LLARI	322
Mirobidov Mirzohid Yaxyoyevich	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINING ENERGIYA TARKIBI DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK TAHLIL QILISH: INSTITUTSIONAL SIFAT, TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALAR HAMDA TADQIQOT VA ISHLANMALAR ROLI	333
Egamberdiyeva Mardona Komiljon qizi	
POCHTA VA KURIERLIK XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION XIZMAT TURLARINI JORIY ETISH	337
U. Z. Narmuradov	



YANGI O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA QO'SHILISH STRATEGIYASI: INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR VA MUZOKARALAR JARAYONI DINAMIKASI TAHLILI	345
Ro'ziqulov Uchqun Hamroqul o'g'li	



YANGI O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA QO'SHILISH STRATEGIYASI: INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR VA MUZOKARALAR JARAYONI DINAMIKASI TAHLILI

Ro'ziqulov Uchqun Hamroqul o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim bo'limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga to'liq a'zo bo'lish borasidagi strategiyasi va muzokaralar jarayonining institutsional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi 1994–2026-yillar oralig'idagi qo'shilish jarayoni dinamikasini, amalga oshirilgan huquqiy-institutsional islohotlarni hamda ushbu jarayonning O'zbekiston tashqi savdo ko'rsatkichlariga ta'sirini kompleks baholashdan iborat. Tadqiqotda hujjatlarni tahlil qilish, statistik taqqoslash va JSTga a'zo bo'lgan boshqa Markaziy Osiyo davlatlari tajribasi bilan qiyoslash usullaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, 2023-yildan boshlab muzokaralar sur'ati sezilarli darajada tezlashgan: 2026-yil holatiga ko'ra, 34 nafar JST a'zosidan 33 tasi bilan ikki tomonlama muzokaralar yakunlangan, 31 ta bozorga kirish bitimi kotibiyatga topshirilgan va Ishchi guruh hisobotining loyihasida 62 ta majburiyat aks ettirilgan. Maqola yakunida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishini muvaffaqiyatli yakunlash uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan [1–3].

Kalit so'zlar: Jahon savdo tashkiloti, qo'shilish muzokaralari, tashqi savdo siyosati, tarif liberallashtiruv, ishchi guruh, TRIPS, GATS, Yangi O'zbekiston.

Abstract: This article analyzes the strategy of the Republic of Uzbekistan to achieve full membership in the World Trade Organization (WTO) and the institutional features of the accession negotiation process. The aim of the study is to comprehensively assess the dynamics of the accession process during the period 1994–2026, the legal and institutional reforms implemented, and the impact of this process on Uzbekistan's foreign trade indicators. The study employs document analysis, statistical comparison, and comparative analysis of the experiences of other Central Asian countries that are members of the WTO. The results indicate that the pace of negotiations has accelerated significantly since 2023: as of 2026, bilateral negotiations have been completed with 33 out of 34 WTO members, market access agreements for 31 markets have been submitted to the Secretariat, and 62 commitments have been reflected in the draft Working Party Report. The article concludes with practical recommendations for successfully completing Uzbekistan's accession to the WTO [1–3].

Keywords: World Trade Organization, accession negotiations, foreign trade policy, tariff liberalization, Working Party, TRIPS, GATS, New Uzbekistan.

Аннотация: В данной статье анализируются стратегия Республики Узбекистан по достижению полноправного членства во Всемирной торговой организации (ВТО) и институциональные особенности переговорного процесса по присоединению. Цель исследования заключается в комплексной оценке динамики процесса присоединения в период 1994–2026 годов, реализованных правовых и институциональных реформ, а также влияния данного процесса на показатели внешней торговли Узбекистана. В исследовании использованы методы анализа документов, статистического сопоставления и сравнительного анализа опыта других государств Центральной Азии, являющихся членами ВТО. Результаты показывают, что с 2023 года темпы переговоров значительно ускорились: по состоянию на 2026 год двусторонние переговоры завершены с 33 из 34 членов ВТО, соглашения о доступе на рынки 31 страны представлены в Секретариат, а в проекте доклада Рабочей группы отражены 62 обязательства. В заключительной части статьи разработаны практические рекомендации по успешному завершению процесса присоединения Узбекистана к ВТО [1–3].

Ключевые слова: Всемирная торговая организация, переговоры по присоединению, внешнеторговая политика, либерализация тарифов, рабочая группа, ТРИПС (TRIPS), ГАТС (GATS), Новый Узбекистан.



KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti oldida turgan ustuvor vazifalardan biri Jahon savdo tashkilotining teng huquqli a'zosi bo'lishdir. Xalqaro savdoning tobora institutsionallashtirib borayotgan sharoitida jahon tovar aylanmasining 98,0 foizi JSTga a'zo mamlakatlar ulushiga to'g'ri kelmoqda, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining 97,0 foizi ham aynan JST a'zolari bilan amalga oshirilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakat uchun tashkilotga a'zo bo'lishning nafaqat siyosiy-institutsional, balki amaliy-iqtisodiy zaruriyat ekanligini yaqqol tasdiqlaydi. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish bo'yicha Ishchi guruhi 1994-yil 21-dekabrda tashkil etilgan bo'lsa-da, keyingi o'n yildan ortiq davrda jarayon amalda sust kechdi: 2005-yilgacha atigi uch marta yig'ilish o'tkazildi, shundan so'ng xalqaro ekspertlar bilan muloqot to'xtatildi. Vaziyat faqat 2020-yildan boshlab, mamlakat rasmiy ravishda to'liq a'zolik bo'yicha muzokaralarni qayta faollashtirgach, tubdan o'zgardi. Bu qaror O'zbekistonning 1995-yildan buyon kuzatuvchi maqomida ishtirok etib kelganidan keyingi sifat jihatidan yangi bosqichni anglatadi.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi tashqi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida davlat strategik hujjatlarida ham mustahkamlangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹ Farmoni bilan tasdiqlangan strategiyasida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish masalasi alohida belgilab qo'yilgan. Bu bilan bir qatorda, a'zolik bo'yicha memorandumga 1995-yildan buyon to'qqiz marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan, uning to'liq qayta ko'rib chiqilgan nusxasi 2019-yil 25-iyulda imzolangan, oxirgi shakli esa 2020-yil 7-mayda taqdim etilgan [3].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, 2023–2026-yillar oralig'ida O'zbekistonning JSTga qo'shilish jarayoni sifat jihatidan yangi bosqichga o'tdi — muzokaralar soni, ko'лами va murakkablik darajasi keskin oshdi, biroq bu jarayonning ilmiy adabiyotda kompleks, yangilangan tahlili hali yetarli emas. Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish strategiyasini, muzokaralar jarayonining institutsional xususiyatlarini hamda ushbu jarayonning milliy iqtisodiyotga ta'sirini har tomonlama tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

JSTga a'zo bo'lish jarayonining nazariy-metodologik asoslari xalqaro iqtisodiy adabiyotda keng yoritilgan. B. Hoekman va M. Kostecki o'zlarining klassik tadqiqotida qo'shilish muzokaralari murakkabligi tashkilotga a'zo davlatlar sonining o'sishi va muzokara predmetlarining kengayishi bilan bevosita bog'liqligini asoslab berishgan: agar Urugvay raundigacha asosan tarif muzokaralari yetakchi bo'lgan bo'lsa, hozirgi bosqichda TRIPS (intellektual mulk huquqlari), GATS (xizmatlar savdosi), SPS (sanitariya va fitosanitariya choralari) hamda TBT (savdodagi texnik to'siqlar) kabi kelishuvlar ham muhim muzokara obyektiga aylangan. Ushbu nazariy model, quyida ko'rsatilganidek, O'zbekiston tajribasida to'liq o'z tasdig'ini topmoqda. Xizmatlar savdosini liberallashtirishning makroiqtisodiy samarasi masalasida A. Mattoo, R. Rathindran va A. Subramanian tomonidan olib borilgan tadqiqot alohida ahamiyatga ega: mualliflarning hisob-kitoblariga ko'ra, xizmatlar bozorini liberallashtirish iqtisodiy o'sish sur'atini yiliga qariyb 1,5 foizga oshirishi mumkin. Ushbu xulosa xizmatlar sektori YalMning qariyb yarmini (47 foizga yaqin) tashkil etuvchi O'zbekiston uchun, xususan, IT, moliya, transport va turizm sohalaridagi JST majburiyatlarini tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo davlatlarining JSTga qo'shilish tajribasi bo'yicha R. Pomfretning tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Pomfret 2005-yilda e'lon qilingan ishida mintaqa davlatlari uchun regionalizm va ko'p tomonlama savdo tizimiga integratsiya o'rtasidagi tanlov masalasini ko'rib chiqqan bo'lsa, 2020-yildagi tadqiqotida bevosita O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga bag'ishlangan tahlilni taqdim etgan, unda mamlakatning 1994-yildagi arizasi va JST tizimining 1995-yildan buyon evolyutsiyasi o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqilgan. Osiyo taraqqiyot banki tomonidan tayyorlangan 215-sonli tahliliy hisobotda Kavkaz va Markaziy Osiyoning JSTga allaqachon a'zo bo'lgan mamlakatlari tajribasi umumlashtirilib, ularning a'zolik bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlari va a'zolikdan keyingi savdo siyosati natijalari tahlil qilingan. Hisobotda ta'kidlanishicha, ushbu davlatlarning tajribasi hozirgi kunda JSTga qo'shilish jarayonida bo'lgan Ozarbayjon, Turkmaniston va O'zbekiston uchun muhim amaliy saboq bo'lishi mumkin.

S. Tai, J. Lee va G. Baimukhamedovalarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi savdo liberallashtirish va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya strategiyalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida, savdo siyosatini muvofiqlashtirish, biznes muhitini yaxshilash va JSTga qo'shilish jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi tizimli monitoring institutlarini yaratish zarurligi asoslab berilgan. Bu xulosalar O'zbekistonda 2020-yildan buyon shakllantirilayotgan institutsional mexanizmlar, xususan, "Yo'l xaritasi" hujjati va muzokaralar bo'yicha yagona muvofiqlashtiruvchi organ tashkil etilishi bilan uyg'unlashadi. Shunga qaramay, mavjud adabiyotning katta qismi 2020-yilgacha bo'lgan davrni

1 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



yoki umumiy mintaqaviy tendensiyalarni qamrab olgan, 2023–2026-yillardagi jadal institutsional islohotlar, ikki tomonlama muzokaralarning yakunlanish dinamikasi va Ishchi guruh hisobotidagi majburiyatlar sonining o'sishi kabi yangi omillar yetarlicha tadqiq etilmagan. Ushbu bo'shliq mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi: tadqiqot 2019–2026-yillar oralig'idagi eng so'nggi statistik va institutsional ma'lumotlar asosida yangilangan tahlilni taqdim etadi [15].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullarining uyg'unlashtirilgan yondashuvidan foydalanildi. Birinchidan, hujjatlarni tahlil qilish usuli qo'llanildi: O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi 77-II-son² Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi³, shuningdek, Jahon savdo tashkiloti Kotibiyatining Ishchi guruh yig'ilishlari bo'yicha rasmiy axborotnomalari o'rganildi. Ikkinchidan, statistik taqqoslash usuli qo'llanilib, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2019–2025-yillar bo'yicha tashqi savdo va investitsiya ko'rsatkichlari dinamikada tahlil qilindi. Uchinchidan, qiyosiy-tarixiy usul asosida O'zbekistonning muzokaralar jarayoni Qirg'iziston (1998), Tojikiston (2013) va Qozog'iston (2015) kabi mintaqadagi boshqa davlatlarning JSTga a'zo bo'lish tajribasi bilan qiyoslandi. To'rtinchidan, JST Kotibiyatining 2024–2026-yillardagi rasmiy matbuot xabarlarini asosida Ishchi guruh yig'ilishlari xronologiyasi tuzildi va bu ma'lumotlar asosida jarayonning institutsional dinamikasi baholandi [10–15].

Tadqiqot uchun ma'lumotlar quyidagi manbalardan yig'ildi: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi, Milliy statistika qo'mitasi rasmiy hisobotlari, Jahon savdo tashkilotining rasmiy sayti (wto.org) hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan chop etilgan tahliliy hisobotlar. Tadqiqot davri sifatida 1994–2026-yillar oralig'i, chuqurlashtirilgan miqdoriy tahlil uchun esa 2019–2025-yillar tanlab olindi [8–9].

TAHLIL VA NATIJALARI

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoni murakkab, ko'p bosqichli muzokaralar tizimi bo'lib, u "Tashqi savdo rejimi bo'yicha memorandum" taqdim etishdan boshlab ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralargacha, oxirida Ishchi guruh hisoboti va protokolni imzolashgacha davom etadi. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2019–2025-yillar oralig'ida mamlakat tashqi savdo ko'rsatkichlari sezilarli yaxshilanish dinamikasini namoyon etdi: eksport hajmi 6,5 milliard AQSh dollaridan 14,5 milliard dollargacha, ya'ni 2,2 barobardan ortiq oshdi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi esa 3,7 barobar ko'paydi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston tashqi savdo va investitsiya ko'rsatkichlari (2019–2025)⁴

Ko'rsatkich	2019	2021	2023	2025
Eksport (mlrd. USD)	6.5	8.1	11.2	14.5
Import (mlrd. USD)	14.0	17.3	22.1	27.4
Savdo ulushi YalMga nisbatan (%)	54.0	62.4	71.3	76.8
Investitsiya kirimi (mlrd. USD)	2.3	3.9	6.1	8.4
O'rtacha import tarifi (%)	16.4	15.1	12.7	10.3

Shu bilan birga, o'rtacha import tarifi darajasining pasayish sur'ati (2019-yildagi 16,4 foizdan 2025-yilda 10,3 foizgacha) mamlakatning JST talablariga muvofiqlashuv jarayonida ijobiy dinamikani namoyon etmoqda, bu ko'rsatkich qo'shilish muzokaralarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi [7].

Muzokaralar yo'nalishlari kesimida tarif siyosati, subsidiyalar, intellektual mulk va xizmatlar bozori bo'yicha asosiy yo'nalishlar hamda O'zbekistonning ularga nisbatan tanlagan yondashuvlari 2-jadvalda umumlashtirilgan (2-jadval).

² <https://lex.uz/docs/-67345>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-2876354>

⁴ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval. Muzokaralar yo'nalishlarining asosiy muammolari va yondashuvlar⁵

Soha	Asosiy muammo	O'zbekistonning yondashuvi
Tarif siyosati	Import tarif stavkalarini GATT/JST talablariga moslashtirishda sezgir tarmoqlarni himoya qilish zarurati	Bosqichma-bosqich liberallashtirish rejasi, o'tish davri mexanizmlari va maxsus muhofaza choralari
Subsidiyalar	Qishloq xo'jaligi va sanoat subsidiyalarini SCM va AoA kelishuvi me'yorlariga moslashtirish	«Yashil quti» va «ko'k quti» kategoriyalari orqali subsidiyalarni klassifikatsiya qilish
Intellektual mulk	TRIPS kelishuviga to'liq muvofiqlikni ta'minlash, ayniqsa farmatsevtika va raqamli sohalarida	IP qonunchiligini isloh qilish, ijro etish mexanizmlarini kuchaytirish
Xizmatlar bozori	GATS bo'yicha moliya, telekommunikatsiya va transport xizmatlarini ochish	Qisman liberallashtirish, strategik tarmoqlarda milliy xizmat ko'rsatuvchilarni himoya qilish

Institutsional jihatdan, Ishchi guruh yig'ilishlari dinamikasi jarayonning 2023-yildan keyingi jadallashuvini yaqqol namoyon etadi (3-jadvalga qarang). Agar 1994–2005-yillar oralig'ida atigi uchta yig'ilish o'tkazilgan bo'lsa va 2005–2020-yillarda jarayon nisbatan sust kechgan bo'lsa, 2023-yil martidan 2026-yil iyuligacha bo'lgan davrda sakkizta yig'ilish (6-yig'ilishdan 13-yig'ilishgacha) o'tkazildi [13].

2026-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston 34 nafar JSTga a'zo davlatdan 33 tasi bilan ikki tomonlama muzokaralarni yakunlagan, 31 ta bozorga kirish bitimi (shu jumladan, Hindiston bilan yaqinda imzolangani) JST Kotibiyatiga rasman topshirilgan. 2026-yil 9-mart kuni bo'lib o'tgan 12-yig'ilishda Ishchi guruh hisobotining loyihasida 62 ta majburiyat aks ettirilgani (avvalgi versiyada 56 ta bo'lgan) qayd etilgan, bu esa muzokaralar doirasida erishilgan institutsional taraqqiyotni ifodalaydi. Mamlakatning 2026-yil martidagi JSTning 14-Vazirlar konferensiyasigacha a'zolikni yakunlash rejasi keyingi muzokaralar bosqichlari uchun qo'shimcha tayyorgarlik va muvofiqlashtirish imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Shunga qaramay, 2026-yil 27–28-iyul kunlari bo'lib o'tgan 13-yig'ilishda tomonlar a'zolikni 2026-yil yakunigacha rasmiylashtirish borasidagi qat'iy niyatni yana bir bor tasdiqlashdi [1–4]. Tashqi savdo faoliyatini JST me'yorlariga moslashtirish maqsadida 2017–2025-yillar oralig'ida 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qayta ko'rib chiqilgan yoki yangidan qabul qilingan, shundan 68 tasi so'nggi bir yil ichida amalga oshirilgan [11]. 2020-yil 20-aprelda qabul qilingan "Yo'l xaritasi" hujjati muzokaralar jarayonini boshqarish uchun yagona institutsional mexanizm vazifasini o'tamoqda. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi GATT VII moddasi talablariga muvofiq tovarlar qiymatini aniqlashning xalqaro standartlarini joriy etdi, bu esa bojxona tizimining xalqaro me'yorlarga muvofiqlashuviga xizmat qilmoqda. Mazkur yo'nalishda amaliy ijro mexanizmlarini takomillashtirish va bojxona xodimlarining malaka darajasini oshirish bo'yicha keyingi rivojlanish imkoniyatlari mavjud. Oziq-ovqat mahsulotlarini sinash sohasida JST talablariga mos 775 ta xalqaro standartdan mamlakatimizda 100 tasi joriy etilgani, 100 dan ortiq laboratoriyadan esa 10 tasi xalqaro darajada akkreditatsiyadan o'tgani texnik infratuzilma va sanitariya-fitosanitariya yo'nalishidagi institutsional salohiyatni yanada rivojlantirish uchun muhim asosni shakllantiradi [6].

Olingan natijalar Hoekman va Kosteckining nazariy modelini to'liq tasdiqlaydi: O'zbekiston muzokaralari tarif masalalaridan TRIPS, GATS, SPS va TBT kabi kengroq qamrovli kelishuvlarga o'tish orqali muzokara yo'nalishlarining kengayib borayotganini namoyon etmoqda. Ishchi guruh hisobotidagi majburiyatlar sonining 56 tadan 62 taga oshishi (2025–2026-yillar) bu tendensiyaning amaliy ko'rinishidir. 2023-yildan keyingi jadal sur'at, birinchi navbatda, siyosiy irodaning kuchayishi bilan izohlanadi: "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida a'zolik masalasining aniq maqsad sifatida belgilanishi, shuningdek, yuqori darajadagi muntazam uchrashuvlar (Prezident darajasidagi muzokaralar, JST Bosh direktori bilan aloqalar) muzokaralar jarayoniga institutsional turtki bergan. 2026-yil martidagi 14-Vazirlar konferensiyasigacha a'zolikni yakunlash rejasining keyingi bosqichlarga o'tishi ko'p tomonlama formatda barcha a'zo davlatlarning konsensusini ta'minlash muhimligini ko'rsatadi. Bu esa muzokaralar jarayonida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, hujjatlarni ko'rib chiqish jarayonlarini muvofiqlashtirish va a'zolikni rasmiylashtirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlarni rivojlantirish zarurligini belgilaydi.

Iqtisodiy jihatdan, tarif liberallashtirishning potensial ta'sirlari e'tiborga molik: tarif darajasini JST talablariga moslashtirish budjet daromadlariga yiliga 0,8–1,2 milliard AQSh dollari miqdorida ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqidagi baholar a'zolik jarayonida fiskal barqarorlikni ta'minlash choralari oldindan ishlab chiqish muhimligini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, Mattoo va boshqalar ta'kidlagan xizmatlar savdosi liberallashtirishdan kutilayotgan uzoq muddatli o'sish samarasi (yiliga taxminan 1,5 foiz) bilan muvozanatlashtirilishi kerak, ya'ni qisqa muddatli fiskal o'zgarishlar va uzoq muddatli strukturaviy foyda o'rtasidagi muvozanatni boshqarish muhim siyosiy vazifaga aylanadi [5–9].

5 Manba: JST Ishchi guruh hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoni 1994-yildan buyon davom etayotgan bo'lsa-da, 2020-yildan keyin, ayniqsa, 2023-yildan so'ng sifat jihatidan yangi, jadal bosqichga o'tdi. Ikki tomonlama muzokaralarning 33 davlat bilan yakunlanishi, 31 ta bozorga kirish bitimining topshirilishi va Ishchi guruh hisobotidagi majburiyatlar sonining oshib borishi mamlakatning JSTga to'liq a'zo bo'lishga real yaqinlashganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, o'rtacha import tarifini JST talablariga muvofiqlashtirish, budget daromadlari barqarorligini ta'minlash va institutsional ijro salohiyatini yanada rivojlantirish jarayonning yakuniy bosqichida muhim ustuvor yo'nalishlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Qolgan ikki tomonlama muzokaralarni (bitta a'zo davlat bilan) tezkorlik bilan yakunlash va bozorga kirish bitimlarini to'liq ratifikatsiya qilish;
2. Tarif liberallashtirishning fiskal ta'sirini yumshatish uchun budget daromadlarini diversifikatsiya qilish choralari oldindan ishlab chiqish;
3. Standartlashtirish va akkreditatsiya infratuzilmasini (jumladan, sinov laboratoriyalarini xalqaro darajada akkreditatsiyadan o'tkazishni) jadallashtirish;
4. Tarif liberallashtirishning ijtimoiy ta'sirini yumshatish maqsadida ijtimoiy himoya dasturlarini kuchaytirish, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va paxtachilik sohasida band bo'lgan aholi uchun;
5. Xususiy sektor va tarmoq uyushmalarining muzokaralar jarayonidagi institutsional ishtirokini kengaytirish, ularga qonunchilik islohotlari bo'yicha real konsultativ vakolatlar berish.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish strategiyasi mamlakat global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvining muhim bosqichi bo'lib, uning muvaffaqiyatli yakunlanishi nafaqat tashqi savdo ko'rsatkichlarini yaxshilash, balki institutsional islohotlarni chuqurlashtirish uchun ham qo'shimcha turtki bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi 77-II-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-67345>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Tashqi savdo va investitsiya ko'rsatkichlari, 2019–2025.
4. Hoekman B., Kostecki M. The Political Economy of the World Trading System: The WTO and Beyond. — Oxford University Press.
5. Mattoo A., Rathindran R., Subramanian A. Measuring Services Trade Liberalization and its Impact on Economic Growth: An Illustration // World Bank Policy Research Working Paper.
6. Pomfret R. Uzbekistan and the World Trade Organization. — University of Adelaide, School of Economics, 2020.
7. Pomfret R. Trade policies in Central Asia after EU enlargement and before Russian WTO accession: Regionalism and integration into the world economy // Economic Systems. — 2005. — Vol. 29(1). — P. 32–58.
8. Asian Development Bank. Trade Policy in Transition Economies of the Caucasus and Central Asia // ADB Briefs. — No. 215, 2022.
9. Tai S.W., Lee J.W., Baimukhamedova G.S. Strategies for WTO accession and for economic integration of Central Asia: A view from Kazakhstan // World Sustainable Development Outlook. — 2008. — P. 385–395.
10. World Trade Organization. Uzbekistan reaffirms 2026 WTO accession goal, thanks members for continuing engagement. — WTO News, 27–28 July 2026. — URL: wto.org.
11. World Trade Organization. Uzbekistan commits to maintaining "strong momentum" to accede to WTO in 2026. — WTO News, 9 March 2026. — URL: wto.org.
12. World Trade Organization. Uzbekistan makes "steady progress" towards finalizing accession negotiations. — WTO News, 5 November 2025. — URL: wto.org.
13. The Diplomat. Uzbekistan Eyes March 2026 Accession to the WTO, January 2026.
14. Gazeta.uz. Uzbekistan reaffirms commitment to finalize WTO accession in 2026, 3 August 2026.
15. World Trade Organization. Accession status: Uzbekistan. — URL: wto.org/english/thewto_e/acc_e/a1_ouzbekistan_e.htm.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>